

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH MASALASI

Sabirxodjaeva Tursunoy Tojitdin qizi

ADU, "Tasviriy va amaliy san'at" kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari imkoniyatlari tahlil qilingan. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning har tomonlama rivojlanishi va guruhda rivojlantiruvchi muhitning tarkib topishi izchil asoslangan.*

Kalit so'zlar; *tasviriy faoliyat, estetik tarbiya, integral faoliyat.*

Sh.M. Mirziyoyev Oliy majlisga yo'llagan murojaatlarida "Ilm va ta'limning qadriga yetib, davlatimizda ilm va ta'lim o'rganish bilan muhit yaratilsa, bobolarimizga munosib hayot va kelajakni qura olamiz"- deya ta'kidlaganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, ilmiy-nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan qiziqishni uyg'otish estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va tasvirlashni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabi ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga moslashtirishga o'rganadilar.

Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan ijobiy munosabatini, bundan tashqari san'at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni

ko'zda tutadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar xal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tasviriy faoliyat birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Mazkur yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshqalar) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida: badiiy didni tarbiyalash; amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish; fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish; qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish; kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi. Bundan xulosa shuki, tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo'lim hisoblanadi va faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog'liqlikda amalga oshiriladi. Ushbu omil o'z navbatida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari mazmuni, nazariyasi va texnologiyasi faoliyatning boshqa turlariga bog'liq tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlari, xususan

rasmga qarab hikoya qilish boshqa faoliyatlar bilan integral ravishda olib boriladi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida, qalam hamda moyqalamdan erkin foydalanishda o'z harakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa malakani egallash, bolalarda qo'lini yengil, erkin bir tekisdagi harakat qilish hususiyatini rivojlantiradi. Umumiy tadqiqotlarimiz natijasida bolalar turli shakl, proporsiyadagi predmedlarni chizish jarayonida predmetning ish hususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga predmetning kattaligiga mos ravishda harakatlanishga yordam beradigan metodikalarni tadqiq etdik. Bundan kelib chiqdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida bolalar materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu mashg'ulotlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Tasviriyl faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovhi faoliyatdir. Tasviriyl faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishirangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni shaklni, uning xilma xilligini sezsa shunchalik aralashmasining xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi ularda predmetlarga va uning bazi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriyl san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriyl faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muhim o'rin egallaydi. Bolalarning badiiy ijodiy o'sishi –bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, bahor faslida ekskursiya uyushtirish va tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvhi estetik his-tuyg'u orqali tevarak atrofga kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalashi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topishbu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib boorish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xapqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Bahodirovna M. Z. IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN FINE ARTS //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 300-305.
3. Bakhadirovna M. Z. Methodology for the Development of Students' Comets of Aesthetic Culture and Creativity //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – T.4. – №. 1. – C. 22-26.
4. Bahodirovna M. Z. TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK KOMETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARDAN FOYDALANISH //FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT. – 2024. – T. 2. – №. 1.
5. Kh K. K. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PORTRAIT GENRE IN AESTHETIC EDUCATION OF V-VIII CLASS STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21.